

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

***MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK
KAFEDRASI***

2-kurs 203-guruh talabasi

Samandarov U

Mavzu: Boltiqbo'yi davlatlari aholisining etnodemografik tuzilishi

REFERAT

TEKSHIRDI: Ravshanov Sh.

Samarqand - 2016

Reja:

1. *Estoniya aholisining etnodemografik tuzilishi*
2. *Latviya aholisining etnodemografik tuzilishi*
3. *Litva aholisining etnodemografik tuzilishi*
4. *Daniya aholisining etnodemografik tuzilishi*
5. *Finlandiya aholisining etnodemografik tuzilishi*
6. *Belorussiya aholisining etnodemografik tuzilishi*

Estoniya – shimoldan Fin qo'ltig'i, g'arbdan Riga qo'ltig'i, sharqdan Rossiya, janubdan Latviya bilan chegaradosh. Maydoni 45 000 km² (Saaremaa va Xiyumaa orollari bilan). Sohillari uzoq vaqt muzlaydi. Namgarchilik ko'pligi sababli botqoqlashib ketgan. Mayda daryo va ko'llari (Chud, Pskov)ko'p. Siyosiy ma'muriy jihatidan 15 uezdga bo'linadi.

Foydali qazilmalarga, ayniqsa, yonuvchi slanesga boy (Fin qo'ltig'i bo'ylari), bundan tashqari torf va fosforitga boy. Yonuvchi slanesdan IES larda va ximiya kombinatida xom-ashyo sifatida ishlatiladi.

Aholisi 1,4 mln (2001 y), 1,3 mln (2006 y) kishi. Tug'ilish koeffitsienti 9 ‰, o'lim 14 ‰. 1 ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 17 ‰, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 16 ‰. O'rtacha umr 65-76 yosh. YAMD 9650 \$ (2001 y.). Urbanizatsiya darajasi 75 ‰. Aholi zichligi 1 km² ga 35 kishi. Millioner shaharlari yo'q. Tallinda 435 ming kishi (1995 y). Yirik shaharlari: Tartu, Narva, Kaxtla – Yarve, Pernu.

Sanoati mamlakatda metall yo'qligi sababli kam metall sarflanadigan tarmoqlar priborsozlik, radioapparatlar, slanes sanoati uchun asbob-uskunalar, kemalarni remont qilish, baliq sanoati, o'rmon sanoati rivojlangan. Qishloq xo'jaligida chorvachilik etakchi tarmoq. Dehqonchiligida asosan kartoshka, qisman zig'ir ekiladi. Mamlakat territoriyasi tekislik bo'lganligi sababli GES lar qurilmagan, AES lar yo'q. Elektr-energiyasi asosan yonuvchi slanesga ishlaydigan IES lardan olinadi. Neft va gaz yo'qligi sababli Rossiyadan sotib oladi. Sohillarda turizm rivojlangan.

Yirik sanoat shaharlari: Tallin, Tartu.

Temir yo'l transporti va dengiz transporti yaxshi rivojlangan. Barcha shaharlari temir yo'llar bilan tutashtirilgan.

Asosiy portlari: Tallin, Pernu.

Tashqi savdosi asosan Rossiya va Horijiy Yevropa davlatlariga to'g'ri keladi. Pul birligi – eston kronasi.

Eksporti: baliq, radiotexnika, priborlar, qog'oz.

Importi: tabiiy gaz, neft mahsulotlari, g'alla, metallar, mashinalar.

Latviya – g'arbdan Boltiq dengizi (Riga qo'ltig'i), sharqdan Rossiya, shimoldan Estoniya, janubdan Litva va Belarus bilan chegaradosh. Maydoni 64,6 ming km² Iqtisodiy geografik o'rni qulay. Oblastlarga bo'linmagan. Siyosiy adminstrasiyaga bo'lingan: 26 uezd va 6 respublika shaharlari. Hududidan Daugava (G'arbiy Dvina) daryosi oqib o'tadi. Daryoga 3 ta yirik GES qurilgan. Foydali qazilmalardan torf katta ahamiyatga ega. O'rmonga boy.

Aholisi 2,7 mln kishi, 2,4 mln kishi (2003 y), 2,3mln kishi (2006 y). Tug'ilish koeffisienti 9‰, o'lim 14‰. 1ayolga 1,2 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 17 %, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 15 %. O'rtacha umr 65-76 yosh. YAMD 7760 \$ (2001 y). Urbanizasiya darajasi 70%. Aholi zichligi 1 km² ga 41 kishi. Eng yirik shahari Riga (827000-96 y), Daugavapilis, Liepaya, Elgava, Yurmala.

Sanoati. Latviya Estoniya va Litvaga nisbatan iqtisodiy jihatdan rivojlangan. Mashinasozlik asosiy o'rin tutadi. Boltiq bo'yi davlatlari ichida yagona po'lat eritish zavodi Liepayada joylashgan. Metalni Polsha va Rossiyadan sotib oladi. Mashinasozlik sanoatida mikroavtobuslar (RAF), ATS lar, elektrotexnika jihozlari, kemalar, radiola va radiopriyomniklar ko'p chiqariladi.

Ximiya sanoatida ximiyaviy tolalar, rezina-texnika buyumlari, davolash preparatlari ishlab chiqariladi. Mebel ishlab chiqarish va rezina sanoati rivojlangan. Yog', go'sht va baliq-konserva sanoati rivojlangan.

Qishloq xo'jaligida sut chorvachiligi va cho'chqachilik rivojlangan. Mamlakat g'arbida qand lavlagi, sharqda esa kartoshka va zig'ir ekiladi.

Dengiz transporti yaxshi rivojlangan, yirik portlari: Riga, Liepaya. Temir yo'llari yaxshi rivojlangan. Yirik sanoat markazlari: Riga, Daugavapilis, Liepaya. Tashqi savdosi asosan Rossiya, MDH ning boshqa davlatlari va Horijiy Evropa davlatlari bilan bo'ladi.

Eksporti: elektr jihozlari, radiotexnika, medisina jihozlari, baliq, o'rmon, qog'oz.

Importi: tabiiy gaz, neft, ko'mir, metall, g'alla, mashinalar, elektr energiya. Xalqaro turizm rivojlangan: Riga, Yurmala. Pul birligi – lat.

Litva 4 mamlakat va Boltiq dengizi bilan chegaradosh. Maydoni 65,2 ming km². Oblastlarga bo'linmaydi. 10 uezdga bo'lingan. Temir yo'llar orqali Polsha va Germaniya bilan bog'langan. Yirik avtoyo'llarga ega.

Aholisi 3,650 ming kishi, 3,7 (2003 y), 3,4 mln kishi (2006 y). Tug'ilish koeffitsienti 9‰, o'lim 12‰. 1 ayolga 1,2 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar 19 %, 64 yoshdan yuqori bo'lgan 14 %. O'rtacha umr 66-77 yosh. YAMD 8350 \$ (2001 y). Aholi zichligi 1 km² ga 56 kishi. Urbanizatsiya darajasi 68 %.

Asosiy foydali qazilmalari: torf, qahrabo, binokorlik materiallari. Sanoati Latviya va Estoniyaga qaraganda kam rivojlangan. Energetika bazasining zaifligi sanoatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Tabiiy gaz, ko'mir va torfga ishlaydigan IES lar mavjud. Nyamunos daryosiga GES qurilgan. 2 ta AES bor. Kam metall sarflanadigan mashinasozlik: stanoklar, elektr asboblari, motorlar ishlab chiqariladi. Klaypedada kemasozlik mavjud. Zig'ir tolasidan gilam to'qish rivojlangan. O'rmon sanoati mebel, faner, qog'oz ishlab chiqaradi.

Tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligi uchun Latviya va Estoniyaga nisbatan qulayroq. Qishloq xo'jaligi sut chorvachiligi va cho'chqachilikka ixtisoslashgan. Javdar, bug'doy, arpa, no'xat, zig'ir va qand lavlagi yetishtiriladi. Yirik sanoat markazlari: Vilnyus, Klaypeda, Kaunas, Shyauliyay. Tashqi savdoda MDH davlatlari etakchi o'rin tutadi. Pul birligi – lit.

Eksporti: elektr jihozlari, priborlar, chorva va o'rmon mahsulotlari, qahrabo.

Importi: tabiiy gaz, neft, metall, g'alla, mashinalar, elektr energiyasi.

Daniya (Danmark),

Daniya qirolligi (Konqeriqet Danmark) — Yevropaning shim.-g'arbidagi davlat, Yutlandiya ya. o.ning katta qismini va unga yaqin orollar guruhi (Zelandiya, Fyun, Lollann, Falster va b.)ni o'z ichiga oladi. Mayd. 43043 km² (Grenlandiya va Farer o.laridan tashqari); Aholisi 5,59 mln. kishi (2012). Poytaxti — Kopengagen sh. Ma'muriy jihatdan 14 amt (viloyat)ga, amtlar esa kommunalarga bo'linadi. Kopengagen va Frederikeberg sh.lari mustaqil ma'muriy birlikka ajratilgan bo'lsa ham, ammo amtlarga tenglashtirilmagan. Ichki

muxtoriyatdan foydalanuvchi Farer o.lari va Grenlandiya o. D. qirolligi tarkibiga kiradi.

D.— konstitutsiyali monarxiya. Amaldagi konstitutsiyasi 1953 y. 5 iyunda qabul qilingan. Davlat boshlig'i — qirol (qirolicha, 1972 y.dan qirolicha Margrete II). Qonun chiqaruvchi hokimiyatni qirolicha b-n folketing (bir palatali parlament) amalga oshiradi. Folketing 179 deputatdan iborat. Ular umumiy to'g'ri va yashirin ovoz berish yo'li b-n 4 y. muddatga saylanadi. Ijroiya hokimiyatni qirol (qirolicha) amalga oshiradi. U bosh vazir va hukumat a'zolarini tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi.

D. hududi keng bargli urmonlar zonasida joylashgan, yer yuzasi tekislik. Eng baland joyi Yutlandiya ya. o.dagi Ayer-Bavnexoy tepaligi (172 m). To'rtlamchi davrda yer ustini qoplagan muzlikning izlari saqlanib qolgan. Yutlandiya ya. o. va b. orollarning sohillarida qo'ltiqlar va bo'g'ozlar ko'p. D.da qazilma boyliklar oz. Kaolin, bo'r, neft, torf, qo'ng'ir kumir, gaz va tuz konlari bor. Iqlimi mo'tadil dengiz iqlimi, yozi salqin, bahor va kuz fasllari uzok, davom etadi. Kishi yumshoq. Fev.da o'rtacha t-ra 0°, iyulda 15—16°. Yillik yogin 600–900 mm. Yog'inning ko'p qismi kuzda yog'adi, bahorda va yozda yog'in kam bo'ladi. Tez-tez tuman tushadi. Daryolari juda qisqa (eng kattasi Gudeno, 158 km). Kichik oqar ko'l ko'p. Mamlakat g'arbining tuprog'i podzol, sharqiniki qo'ng'ir o'rmon tuproqlardir. Bu yerlarda dehqonchilik qilinadi. Dengiz sohillarida o'tloqi allyuvial tuproq, karbonat jinslarda esa karbonatli qo'ng'ir tuproqlar paydo bo'lgan. Hududining 10 % ga yaqini o'rmon b-n band. Qarag'ay, qoraqarag'ay, qoraqayin va dub o'rmonlari bor. Bu o'rmonlarda yovvoyi xayvonlardan ohu, asil va chipor bug'u, elik, tiyin, tustovuq uchraydi. Sohillarda parranda ko'p. Yirik qo'riqxonalari: Xesselyo, Vorse.

Aholisining 98 % danlar; olmonlar va frizlar ham bor. Aholining o'rtacha zichligi bir km² ga 114 kishi. Aholining 84,9 % shaharlarda yashaydi. Rasmiy tili — dan tili. Dindorlarning 91 % — lyuteranlar. Yirik shaharlari: Kopengagen, Orxus, Odense, Olborg .

D. hududida odam qadim zamonlardan beri yashab kelgan. 5—6-a.larda bu yerga danlar qabilasi kelib joylashgan va 8-a.da ular D.dagi asosiy qabilaga aylangan. Mamlakat nomi shu qabila nomidan kelib chiqqan. D. davlati 9—10-a.larda shakllangan. 11-a. boshlarida Buyuk Knud 1 hukmronligi davrida Angliya va Norvegiya D.ga qisqa vaqt qaram bo'lib turdi. Valdemar I (1157-82), Knud VI (1182-1202) va Valdemar II (1202—41) qirollik qilgan davrlarda D. davlati birmuncha mustahkamlangan. Skandinaviya davlatlari orasida D. iqtisodiy taraqqiy etgan va siyosiy jihatdan kuchli bo'lgan. 1380 y. D.Norvegiya uniyasi (ittifoqi) tuzilgan. 1397 y. (Margarita davrida) barcha Skandinaviya davlatlari Kalmar uniyasiga muvofiq D. qirolligiga qo'shildi.

16-a.ning 2-yarmidan yirik xususiy yer egaligi rivojlana boshladi. D. Boltiq va Shim. dengiz savdo yo'lida muhim geografik o'rin egallagani tufayli moddiy jihatdan birmuncha fonda ko'rar edi. Boltiq dengizida o'z hukmronligini mustahkamlash va Shvetsiyani uning tarkibida ushlab turish maqsadida D. b-n Shvetsiya o'rtasida ko'p marta bo'lib o'tgan urushlar D.ning mag'lubiyati b-n tugab, Boltik, dengizida Shvetsiya hukmron bo'lib oldi. 17-a.ga kelib D.da dastlabki ixtisoslashgan qirol manufakturalari paydo bo'lib, ular davlatning o'q-dori, qurol-aslaha va harbiy anjomga bo'lgan ehtiyojini qondirib turdi.

1660 y. D. davlati merosiy monarxiya deb e'lon qilindi. Frederik III (1648—70 y.larda idora qilgan) tomonidan e'lon qilingan qonun (1665) D. absolyut monarxiyaga aylanganini yuridik jihatdan tasdiqladi. Rigsrod (yirik feodallar organi) bekor qilinib, rigsdag (tabaka vakillari majlisi) ham chaqirilmaydigan bo'ldi. Mamlakatni markazlashtirish maqsadida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. 1751—70 y.larda hukumatga boshchilik qilgan graf Bernstorf utkazgan merkantilizm siyosati D.ning xo'jalik ahvolini og'irlashtirdi.

Napoleon urushlarida Fransiya tomonida urushda qatnashgan D. mag'lubiyatga uchrab, birmuncha hududidan ajraldi va xo'jaligiga katta zarar yetdi. 1840 y. milliy liberal partiya tuzildi (1870 y. tarqatib yuborildi). 1849 y. iyun konstitutsiyasiga muvofiq D. ikki palatali cheklangan monarxiyaga aylandi. Shu yili yirik yer egalari

manfaatini himoya qiluvchi konservativ partiya (Xoyre partiyasi) tuzildi. 1848—50 y.lardagi D.Prussiya va 1864 y.gi Avstriya-D. urushlaridan so'ng D. Shlezvig , Golshteyn va Lauenburgdan ajrab, yagona milliy davlatga aylandi. 70-y.larda Xoyre partiyasi b-n Venstre partiyasi o'rtasida siyosiy hokimiyat uchun bo'lgan kurashda qishloq sarmoyadorlari manfaatini himoya qilgan Venstre partiyasi g'alaba qozondi.

19-a. oxiri — 20-a. boshlarida ro'y bergan siyosiy va ijtimoiy uzgarishlar 1915 y.gi konstitutsiyada o'z aksini topdi. 1-jahon urushida D. betaraf turdi.

1930-y.lardagi jahon iqtisodiy buhroni D. iqtisodiyotiga katta salbiy ta'sir etdi. 1940 y. apr.da Olmoniya D.ni bosib oldi va uni o'zining oziqovqat bazasiga aylantirdi. 1942—43 y.larda mamlakatda qarshilik ko'rsatish harakati avj oldi. 1943 y. sent.da qarshilik ko'rsatish qarakatining rahbar organi hisoblangan Ozodlik kengashi tuzildi. 1945 y. 5 mayda mamlakat to'la ozod qilindi. D.— 1945 y.dan BMT a'zosi. 1949 y. 4 apr.dan Shim. Atlantika pakti (NATO) a'zosidir.

Milliy bayramlari — 16 apr. — Qirolicha tug'ilgan kun (1940), 5 iyun — Konstitutsiya kuni (1849). O'zR b-n diplomatiya munosabatlarini 1992 y. 25 yanv.da o'rnatgan.

Finlandiya (fincha Suomi, shvedcha Finland), Finlandiya Respublikasi (fincha Suomen Tasavalta, shvedcha Republiken Finland) — Shim. Yevropada joylashgan davlat. Maydoni 337 ming km². Aholisi 5,414 mln. kishi (2012). Poytaxti — Helsinki shahri Ma'muriy jihatdan 5 lyani (guberniya) ga bo'linadi. 1991 yildan o'zini o'zi boshqarish maqomini olgan Aland o.lari bu hisobga kirmaydi.

Davlat tuzumi. F. — suveren respublika. Amaldagi konstitutsiyasi 2000 yil 1 martda kuchga kirgan. Davlat boshlig'i — prezident (2000 yildan Tarya Halonen xonim), u to'g'ri va yashirin ovoz berish yo'li bilan mamlakat fuqarolari tomonidan 6 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni 1 palatali parlament, ijrochi hokimiyatni prezident bilan hukumat birgalikda amalga oshiradi.

Tabiati. Botniya, Fin qo'ltiqlari va Boltik, dengizi sohillari ko'pgina buxta va shxerlar (suv ostidagi va suvdan chiqib turadigan qoyalar) bilan parchalangan. Hududining aksar qismi dengiz sathidan 100–200 m pastda yotuvchi tekislik. Markaziy qismidagi ko'llar atrofi hamda shim. va sharqida tepalik va qirlar bor. Shim.g'arbida Skandinaviya tog'larining tarmoqlari joylashgan (eng baland joyi 1365 m — Xaltiatunturi cho'qqisi). Foydali qazilmalardan xromit, temir, mis kolchedani, misnikel, polimetall rudalar, apatit, grafit, magnezit, asbest, talk, marmar, muskovit konlari bor, torf qazib olinadi. Iqlimi mo'tadil, shim.da kontinental iqlim. Boltiq dengizi va Golfstrim oqimining yaqinligi iqlimga yumshatuvchi ta'sir qiladi. O'rtacha temperatura fev.da —3° dan — 14° gacha, iyulda 14° dan 17° gacha. Yillik yog'in 600– 700 mm. Dare ko'p, qisqa, sersuv, serostona. Yiriklari — KemiYoki, KyumiYoki, KokemyaenYoki, TornioYoki. 60 mingga yaqin ko'l bor (mamlakat hududining 8%), yirik ko'li — Sayma. Botqoq ko'p. Hududning 61% o'rmon, asosan, igna bargli daraxtlar, jan.dagi podzol, gleypodzol, torfli botqoq tuproklarda aralash o'rmonlar, shim.da tog' tundrasi. Yirik milliy bog'lari — Lemmenyoki, PallasOunastunturi, Oulanka va boshqa F.da 18 qo'riqxonalar bor.

Aholisining 93%dan ko'prog'i finlar. Jan. va g'arbiy rnlarda shvedlar, shim.da saamlar yashaydi. Rasmiy tillar — fin va shved tillari. Dindorlarning aksariyati lyuterchilar, pravoslavlar ham bor. Shahar aholisi 65,1%. Yirik shaharlari: Helsinki, Tampere, Turku, Espo.

Tarixi. Miloddan avvalgi 3—2ming yilliklarda F. hududida hozirgi saam (lopar)larning ajdodlari yashagan. 1ming yillik boshlarida bu yerga Boltik, bo'yidagi fin qabilalari ko'chib kelib, mahalliy aholi bilan qo'shib ketgan va natijada fin elati shakllangan. 12— 13-asrlarda F. hududini shvedlar istilo qila boshladi. 19-asr boshlariga kelib u butunlay Shvetsiya qo'l ostiga o'tdi. Ammo fin dehqonlari shaxsiy ozodlikni qo'ldan bermadilar. 1808— 09 yillardagi RossiyaShvetsiya urushidan so'ng F. hududi Buyuk Finlyandiya knyazligi tarzida Rossiya tarkibiga qo'shib olindi. F.ni Rossiya podshosi tayinlagan

generalgubernator (1816 yildan senat raisi) boshqardi. Un ga ichki ma'muriy muxtoriyat bilan birga iqtisodiy muxtoriyat ham berildi. 19-asrning 20-yillaridan F.da iqtisodiy yuksalish tezlashdi. Yog'och tilish sanoati, qishloq xo'jaligida sut chorvachiligi rivojlandi. Rossiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan savdo-sotiq jonlandi, 1860 yildan uz puli joriy etildi. 19-asrning 2yarmida pultovar munosabatlari qaror topdi. Fin millati shakllana bordi. 80-yillarning o'rtalarida podsho hukumatining F. muxtoriyati huquklariga tajovuzi kuchaydi. Fin xalqi o'z milliy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish uchun kurash boshladi. Dastlabki siyosiy tashkilot va partiyalar tuzildi. 1916 i. parlament saylovida F. sotsialdemokratik partiyasi g'alaba qozondi. 1917 yil 6 (19) dek.da F. seymi mustaqillik haqida deklaratsiya qabul qildi. 1919 yil F. respublika deb e'lon qilindi. 1939 i. F.ga SSSR qo'shinlari hujum qildi. 1939— 40 yil "qishki urush"da finlar qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramay, F. o'z hududining bir qismidan maqrum bo'ldi. 2-jahon urushi yillarida fashistlar Olmoniyasi tomonida bo'ldi. 1944 yil urushdan chiqdi. Urushdan keyin mamlakat o'zini betaraf deb e'lon qildi. F. — 1955 yildan BMT a'zosi. O'zR suverenitetini 1991 yil 30 dek.da tan olgan va 1992 yil 26 fev.da diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Milliy bayrami — 6 dek. — Mustaqillik kuni (1917).

Asosiy siyosiy partiyalari va birlashmalari, kasaba uyushmalari. F. so'l ittifoqi, F. kompartiyasi (1918 yil tuzilgan) bilan F. xalqi demokratik ittifoqi (1944 yil tuzilgan) ning qo'shilishi natijasida 1989 yil tashkil etilgan; Liberal xalq partiyasi, 1965 yil tuzilgan; Milliy koalitsion partiya, 1918 yil asos solingan; F. qishloq partiyasi, 1959 yil tashkil etilgan; F. sotsialdemokratik partiyasi, 1899 yil tuzilgan; Ko'katparvarlar ittifoqi, 1987 yil asos solingan; F. Markazi, 1906 yil tashkil etilgan; F. Xristiandemokratik partiyasi (1958 yil F. Xristian ittifoqi nomi bilan tashkil etilgan, 2001 yildan hozirgi nomda); Shved xalq partiyasi, 1906 yil tuzilgan. F. kasaba uyushmalari markaziy tashkiloti, 1907 yilda tashkil etilib, turli nomlar bilan yuritilgan, 1969 yildan qoz. nomda.

Xo'jaligi. F. —yuksak darajada rivojlangan industrialagrar mamlakat. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 32%, qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliq xo'jaliginiki 5%, xizmat ko'rsatish sohasiniki 63%.

Sanoati, asosan, eksportga moslangan bo'lib, o'rmon, metallurgiya, mashinasozlik (yog'ochsozlik, sellyulozaqog'oz sanoati va kemasozlik uchun asbobuskunalar ishlab chiqarish, elektrotexnika va radioelektronika), yog'ochsozlik va sellyulozaqogoz (tilingan yog'och, qog'oz, karton, faner ishlab chiqarish), qora va rangli metallurgiya, elektr energetikasi, neftni qayta ishlash, kimyo, to'qimachilik, tikuvchilik, oziq-ovqat sanoatning yetakchi tarmoklaridir. F.ning yoqilg'ienergetika resurslari yetarli emas, qattiq va suyuq yoqilg'ining aksar qismi chet ellardan keltiriladi. Elektr energiyaning 1/6 GESlarda, 1/3 AESlarda hosil qilinadi. Yiliga o'rtacha 66,8 mlrd. kVtsoat elektr energiya hosil qilinadi. Temir, mis, qo'rg'oshinrux, nikel, xrom rudalari, kobalt, vanadiy, grafit, pirit va boshqa qazib olinadi. Pax va Xyamenlinna shaharlaridagi metallurgiya z-dlarida cho'yan va po'lat, Xaryavalta va Pori shaharlarida mis va nikel, Kokkolada rux eritiladi. Torniodagi z-dda xrom rudasi qayta ishlanib, konsentrat hosil qilinadi. Tampere, Rauma, Laxti, Vasa, Karxulada mashinasozlik, Xelsinki, Turku, Porvo, Saloda yo'l qurilishi va qurilish ishlari uchun mexanizmlar, ko'tarmatransport uskunolari, elektron va telefon apparatlari ishlab chiqariladi. O'rmon, ayniqsa, yogochsozlik va sellyulozaqog'oz sanoatining eksportdagi ulushi katta. O'rmon sanoatining asosiy markazlari — Kotka, Kemi va Pori. Chetdan keltiriladigan xom ashyo negizida neftni qayta ishlash sanoati rivojlangan (Nantali, Porvo). Kimyo va neft kimyosi sanoatida plastmassa, mineral o'g'it, sintetik materiallar, bo'yoq, xlor, oltingugurt kislotasi va boshqa ishlab chiqariladi. Oyna, chinni, ko'npoyabzal, to'qimachilik, tikuvchilik sanoati rivojlangan. Oziq-ovqat sanoati, ayniqsa sut sanoati mahsulotining bir qismi eksport qilinadi.

Qishloq xo'jaligida fermerlik tipidagi mayda va o'rta yer egaligi ustun. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar mamlakat hududining 8%ni tashkil qiladi. Sutgo'sht chorvachiligi — qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i. Qoramol, cho'chqa, qo'y,

ot, parranda boqiladi. Dehqonchilikda bug'doy, yem uchun javdar, arpa, sul, texnika ekinlaridan qand lavlagi, shuningdek, kartoshka, pichanbop o't ekiladi. Darrandachilik (norka, kulrang tulki, shim. tulkisi), bug'uchilik, baliq ovlash rivojlangan. O'rmon xo'jaligi — mamlakat iqtisodiyotining qad. tarmog'i. F.da 18 mln. gektardan ortiq o'rmon bor, yiliga 50—55 mln. m³ yog'och kesiladi.

Transportida temir yo'l uzunligi 5,9 ming km, avtomobil yo'llari uz. 77,7 ming km. Asosiy dengiz portlari: Helsinki, Turku, Kotka. Shvetsiya, Estoniya, Polsha, Olmoniya bilan parom orqali qatnov yo'lga qo'yilgan. Chetga sellyulozaqog'oz, yog'ochsozlik, mashinasozlik, kemasozlik, kimyo, oziq-ovqat, yengil sanoat mahsulotlari va boshqa chiqaradi. Chetdan xom ashyo va chala tayyor mahsulotlar, yoqilgi va moylash ashyolari, keng iste'mol mollari va boshqa oladi. Rossiya, Olmoniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, AQSH bilan savdo qiladi. Pul birligi — fin markasi.

Belorussiya Respublikasi.

MDH ning g'arbiy qismida Sharqiy Yevropa tekisligida joylashgan. Maydoni 207,6 ming km². Shimoli-g'arbdan Litva, shimoldan Latviya, shimoli-sharqdan va sharqdan Rossiya, janubdan Ukraina, g'arbdan Polsha bilan chegaradosh. Polsha, Rossiya va Ukraina bilan chegaradoshligi iqtisodiy qulayligi bo'lsa, dengiz bilan tutashmaganligi noqulayligidir.

Ayni vaqtda Rossiya bilan Horijiy Yevropa davlatlari orasida tranzit yo'llar ustida joylashgan. Territoriyasining 7 % i torfli botqoqliklardir.

Belorussiya siyosiy-ma'muriy tuzilishiga ko'ra 6 ta oblastga bo'linadi. Millioner shaharlari bitta.

Aholisi 10100000 (1986y.), 10236000 kishi (1997y.), 9,9 mln (2003y.), 9,7 mln. (2006 y.) bo'lib, asosiy Sharqiy slovyan xalqlaridir. Tug'ilish koeffisienti 9‰, o'lim 14‰. 1 ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar 18 %, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 14 %. O'rtacha umr 63-75 yosh. YAMD 7630 dollar. Aholisining 81 %ini beloruslar tashkil etadi. Beloruslardan tashqari ruslar, yahudiylar, ukrainlar va polyaklar yashaydi. Aholisining zichligi ancha katta

1km²ga 47 kishi (2006y.).Yirik shaharlari: Minsk (1680000), Gomel (504000), Mogilev, Vitebsk, Gradno (1996y.).Urbanizatsiya darajasi 62%.Mehnat resurslari bilan yaxshi ta'minlashgan, lekin mustaqillik yillari mamlakatdagi iqtisodiy qiyinchiliklar sababli "oqillar migratsiyasi" kuzatilibmoqda.

Belorusiya asosan pastekislikdan tashkil topgan bo'lib, janubida katta maydonni Polese tekisligi egallagan.Tog'lar umuman yo'q.Faqat Minsk qirlari bo'lib, ularning mutloq balandligi 345 m.Mamlakat xududining 1/3 qismini o'rmonlar tashkil etadi.2-jahon urushi Belorusiya o'rmonlariga katta zarar etkazgan.O'rmonlar mamlakatning markaziy va janubiy qismlarida ko'proq.Belorusiyada yirik o'rmon massivlari pushcha deyiladi.

Belorusiya asosan binokorlik materiallari (ohaktosh, mergel, kaolin, kvars qumlari) va o'rmonga boy, torfga ham boy. Boshqa yonuvchi foydali qazilmalar va metallarga juda kambag'al. Shuning uchun Belorussiya sanoati butunlay chet el xom-ashyosi va yoqilg'isiga muxtoj.

Belorusiya XGMT da mashinasozlik, ximiya, yog'ochsozlik, engil va oziq ovqat sanoatlari, zig'ir tola, kartoshka yetishtirish, sut chorvachiligi va cho'chqachilik bilan ajralib turadi. Mamlakat tekislikda joylashganligi sababli GES lar yo'q, AES lar ham qurilmagan. Elektr-energiyasini asosan torfga ishlaydigan IESlar va chetdan keltiriladigan ko'mirga asoslangan IES lar beradi. Shuningdek, tabiiy gazga asoslangan. Lekin elektr-energiyasi bilan o'zini o'zi ta'minlay olmaydi.Rossiyadan oladi. Ko'mirning tannarxi qimmatligi, torf arzonligi tufayli torfga e'tibor oshmoqda.

Belorusiyada metall yo'q. U metalni Rossiyadan , ko'mirni Ukrainadan oladi. Mashinasozlik sanoati traktorlar (Belorus, kranlar), ko'p tonnali og'darma mashinalar (Samosval), MM 133 metal qirquvchi stanoklar, qishloq xo'jalik mashinalari, asbobsozlik, radioappaturalar, elektrotexnika va chorva fermalari uchun turli jixozlar ishlab chiqarish rivojlangan edi, lekin hozir krizis.

Ximiya sanoatida kaliy tuzlari (Soligorsk shahri mamlakatda ishlab chiqariladigan kaliy o'g'itining 40% ini beradi), ximiyaviy tolalar, plastmassa, avtomashinalar ishlab chiqariladi.

Neft-ximiya sanoati tarmoqlari “Do’stlik” atrofida joylashgan.

Yog’ochsozlik sanoati gugurt va faner ishlab chiqaradi. Mebel ishlab chiqarish juda tez o’smoqda. Yog’ochsozlikning asosiy markazlari: Bobruysk va Mogilyov.

Go’sht-sut sanoati hamma joyda bor. Qishloq xo’jaligida chorvachilik etakchi. Qishloq xo’jaligi erlarining 75 % i chorvachilik uchun xizmat qiladi. Sersut sigir va zotdor cho’chqalar boqiladi.

Dehqonchiligida asosan tolasi uchun zig’ir va kartoshka yetishtiriladi. Dolgunes zig’iri asosan mamlakat shimolida, kartoshka esa hamma joyda ekiladi. Lekin kartoshka hosildorligi kamroq. Polese botqoqliklarini quritish hisobiga pichanzor, ekinzor va yaylovlar salmog’i oshib bormoqda.

Transporti. Yuk va yo’lovchi tashishda temir yo’l transporti etakchi. Rossiyani (Moskvani) Polsha, Germaniya, Fransiya bilan bog’lovchi yo’llar Belorusiya orqali o’tadi. Avtoyo’llar Belorusiyani har tomondan kesib o’tadi. Kema qatnovi Dnepr va uning irmog’i Pripyatda, G’arbiy Dvina, Neman va Bug daryolarida rivojlangan. Bu daryolarning yuqori oqimi bir-biriga yaqinligi sababli ular bir-birlari bilan kanallar orqali tutashtirilgan.

Belorusiya tashqi savdo oborotida rossiya etakchi bo’lib, undan tashqari Ukraina va Polsha turadi.

Belorusiya chetga asosan traktorlar, avtomobillar, stanoklar, polimer materiallar, o’g’itlar, zig’ir gazlamalari, gugurt, faner, motosikllar, velosipedlar, oyna, gilam, zig’ir, o’rmon mahsulotlari, yog’och-taxta, go’sht, sut, yog’ eksport qiladi.

Asosiy importi: ko’mir, g’alla, tuz, metallar, neft, gaz, paxta tolasi.

Pul birlig – belorus rubli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *“O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida, xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”* Toshkent. 1997 y.
2. Atlas *“Ekonomicheskaya i socialnaya geografiya mira”* M. 2006 *“Drafa”*
3. Atlas *“Ekonomicheskaya i socialnaya geografiya mira”* M. 2005 *“Ast- Press shkola”*
4. Atlas *“Ekonomicheskaya i socialnaya geografiya mira”* M. 2000 *“Ast- Press”*
5. *“Atlas mira” Strany mira v kartax i sifrax.* M. *“Ast-Press”* 2000 g.
6. Ahmedov B. Lotin Amerikasi. T.O‘z dav nashr. 1963.
7. Arab mamlakatlari. Spr. O‘zb. T. 1965.
8. V.V.Volskiy va b. *Ekonomicheskaya geografiya kapitalisticheskix i razvivayushixsya stran.* 2-chiqar. M. MGU. 1986-y.
9. *“Geografiya: strany i narody”* Rossiya. g. Smolensk: *“Rusich”* 2000 g.
10. Internet ma‘lumotlari *“Osnovnyye demograficheskiye pokazateli po vsem stranom mira v 2007 godu”* Razdel I-II